

ZOOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI

Boyxurazov Zafar Ulug'murod o'g'li

Toshkent kasb-hunar kollejlari uchun ixtisoslashtirilgan 1 - son - hunar maktab
biologiya fani o'qituvchisi

Boyxurazov@gmail.com

Qurbanov Sirojiddin Bo'ron o'g'li

Toshkent kasb-hunar kollejlari uchun ixtisoslashtirilgan 1 - son - hunar maktab
biologiya fani o'qituvchisi

Qurbanov@gmail.com

Mamadaminov Habibullo Uchqun o'g'li

stajyor t., O'simlik moddalari kimyosi insitutti, Toshkent
habibullomamadaminov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Zoobiologiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar. Ular o'quvchilar ilmiy dunyoqarashining rivojlanishiga, ularni kasbga yo'nalish va amaliy hayotga tayyorlashga imkon beradi.

Zoobiologiyani o'qitishning asosiy maqsadi va vositalari. Zoobiologiya kursining maqsadi o'quvchilarga hayvonlar haqida umumiy bilm berish, yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash, ularda ona tabiat va el - yurtga nisbatan mehr - muhabbat ruhini tarbiyalashdan iborat. [1]

Kalit so'zlar; Zoobiologiya, dars, o'quvchi, mashg'ulot.

АННОТАЦИЯ

Уроки зоологии и внеклассные мероприятия. Они позволяют развить научное мировоззрение учащихся, подготовить их к профессиональной ориентации и практической жизни.

Основные цели и средства обучения зоологии. Цель курса зоологии-дать учащимся общие знания о животных, подготовить молодежь к самостоятельной жизни и труду, воспитать в них дух доброты по отношению к родной природе и народу - земле.

Ключевые слова: Зоология, урок, ученик, обучение.

ABSTRACT

Zoology classes and extracurricular activities. They allow students to develop their scientific worldview, prepare them for professional orientation and practical life. The main purpose and tools of teaching Zoology.

The purpose of the zoology course is to provide students with a general knowledge of animals, prepare young people for independent life and labor, nurture the spirit of kindness towards Mother Nature and el - yurt.

Key words: Zoology, lesson, pupil, occupation.

Hikoya metodi. Hikoya dars metodlarini ko‘zi ojiz o‘quvchilar obrazli va izchil bayon qilishdan iborat. Zoologiyani o‘qitishda ko‘zi ojiz o‘quvchilar bu metod yordamida hayvonlar tuzilishi va hayot kechirishini tasvirlash, hayvonlar hayotiga tegishli o‘qituvchining o‘zi bilgan, eshitgan voqealarni hikoya qilib berish orqali amalga oshiriladi. Zoologiyani o‘qitishda hikoya metodi sof holda qo‘llanmasdan balki boshqa metodlar; suhbat, ko‘rgazmali, muammoli izlanish, namoyish qilish, amaliy va boshqa metodlar bilan birga qo‘sib olib boriladi. [2] Hikoyaning samarasni o‘qituvchining mavzuni to‘g‘ri tanlashi, muammoni qo‘ya bilishi bilan bog‘liq. Masalan, sudralib yuruvchilarni o‘rganishda ularning tashqi tuzilishi suvda va quruqlikda yashovchilardan qanday farq qilishini aniqlashni o‘quvchilar o‘rtasiga tashlash mumkin. Hikoya metodi o‘qituvchidan nutqning ravon bo‘lishi, so‘zlarni adabiy tilda to‘g‘ri talaffuz etishni, fikrni qisqa va aniq ifodalanishni talab etadi. Hikoyaning ayrim qismlari badiylyashgan yoki badiy adabiyotlardan olingan misollar bilan boyitilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, xivchinlilar mavzusida uyqu kasalligi qo‘zgatuvchisi se - se pashshasi orqali tarqalishi pashsha faqat tropik Afrikada uchrashini tushuntirishda fransuz fantast yozuvchisi Jyul Vernning “Kapitan Grant bolalari” asaridan misol keltirish mumkin.

Suhbat metodi. Suhbat o‘quv materialini ko‘zi ojiz o‘quvchilarning faol ishtirokida savol - javob orqali o‘rganishdan iborat. Buning uchun o‘qituvchi suhbat mavzusini aniqlab, o‘quvchilar savol va vazifa qo‘sadi. O‘quvchilar esa savollarga javob berish uchun o‘z bilimlarini ishga solishadi, faol fikr yuritishadi, ko‘pincha berilgan savollarga ijodiy yondoshishga harakat qilishadi. [3] Odatda suhbat shaklida dars olib borish uchun o‘quvchilar dars mavzusi bo‘yicha biroz bilimga ega bo‘lishlari zarur. Masalan, baliq, kaptar yoki itni ko‘pchilik o‘quvchilar yaxshi bilishadi. Shuning uchun bu hayvonlarni suhbat orqali o‘rganish juda qulay. O‘quvchilar ko‘rmagan, lekin ular eshitgan hayvonlar (masalan, ayiqlar, kitlar) ni ham suhbat orqali o‘rgatsa bo‘ladi. Suhbatni mavzuni tushuntirishdan oldin kirish so‘z bilan boshlash mumkin. Bunday suhbat yangi mavzuni oldingi o‘tilgan darslar bilan bog‘lash uchun o‘tkaziladi. Dars

oxirida o‘tkaziladigan yakuniy suhbatda esa mavzuni o‘rganish yakunlanadi. Tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan umumlashtiruvchi suhbatda esa o‘tilgan mavzu takrorlanishi va mustahkamlanishi bilan birga o‘quvchilar bilimi baholanadi. Suhbat qiziqarli bo‘lishi bilan birga mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga imkon berishi, savollarning muammoli qo‘yilishi katta ahamiyatga ega. Masalan, qushlarning tashqi tuzilishini o‘rganishda suhbatni "qushlar tashqi tuzilishining qaysi xususiyatlari ularni havoda uchishga moslashganligini ko‘rsatadi ? " mazmunidagi savol bilan boshlash mumkin. Bunday savol o‘quvchining fikrlashini faollashtirib, uning diqqatini dars materialiga qaratadi. o‘quvchilar qushlar gavdasining pat bilan qoplanganligi, qanoti, dumti, tishlar o‘rniga muguz tumshug‘i bo‘lishini yaxshi bilishadi. Lekin qushlarning parvoz qilishi patlarining tuzilishi, ular gavdasining shakli va yengil bo‘lishi bilan bog‘liqligini bilmasliklari mumkin.

Amaliy metod. Mazkur metodlar yordamida tayanch - harakatlanishida nuqsoni bor o‘quvchilar tajriba o‘tkazish, kuzatish va taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Bu metodlar hayvonlar ustida tajriba o‘tkazish, ularning hayoti va xatti harakatlarini kuzatish, tuzilishi va hayot kechirishini taqqoslash, ularni yig‘ ish, kolleksiyalar to‘plash, aniqlovchi yordamida aniqlash, rasm chizish va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. [4]

Ko‘rgazmali metodlar. Bu metodlar yordamida tayanch - harakatlanishida nuqsoni bor O‘quvchilar tirik va tabiiy obyektlarni tayyor kolleksiya, quruq va ho‘l preparatlar, jadvallar, rasmlar, o‘quv kino va videofilmlar, kompyuter, elektron darsliklar, multimediyalar namoyish qilish, modellashtirilgan elektron dasturlar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida ko‘rgazmali metodlar hikoya, suhbat, amaliy muammoli va boshqa metodlar bilan olib boriladi. Mantiqiy metodlar induktiv, deduktiv, qiyoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi metodlarni o‘z ichiga oladi. Induktiv metod hususiy tushunchalardan umumiyl tushuncha hosil qilishdan, deduktiv metod esa aksincha, induktiv yo‘l bilan olingan tushunchalarni kengaytirib, boshqa obyekt va hodisalarga nisbatan qo‘llashdan iborat. Solishtirish, qiyoslash metodi yordamida tayanch - harakatlanishida nuqsoni bor o‘quvchilarda biologik obyekt va hodisalarini o‘zaro taqqoslash orqali ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farq qiluvchi belgilarni aniqlashdan iborat. Zoologiya darslarida bu metod orqali hayvonlarning tuzilishi, hayot kechirishi va xatti harakatlari solishtirilib, ularning o‘zoro qarindoshlik munosobatlari, turli sistematik guruhlardan uchun umumiyl bo‘lgan qonuniyatlar o‘rganiladi. Tahlil qilish metodi yordamida tayanch - harakatlanishida nuqsoni bor o‘quvchilar o‘rganilgan hayvonlar va ular hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, ular o‘rtasidagi umumiyl belgilarga asoslanib, ularni tarkibiy qismlar va guruhlarga ajratishdan iborat.[5]

Umumlashtirish metodi. Ushbu metod yordamida tayanch harakatlanishida nuqsoni bor o‘quvchilar o‘quv materialidagi asosiy bo‘lgan dalillar va tushunchalarni ajratib olish, ularni solishtirish orqali belgilarning rivojlanish xususiyatini tasavvur qilish, umumiylashtirishdan iborat.

Masalan, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, sutevizuvchilar tuzilishiga tegishli materiallardan ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqni ko‘rsatuvchi asosiy dalillar besh barmoqli oyoqlarning rivojlanganligi, terining tuzilishi, ko‘payish, nafas olish, umurtqa pog‘onasi, qon aylanish sistemasining rivojlanganligini, ko‘payish usulini ko‘rsatish mumkin. Ekskursiya darslari. Hayvonlarni o‘rganishda tabiatga, hayvonot bog‘i, o‘lkashunoslik muzeyi, chorvachilik, parrandachilik, ipakchilik va asalarichilik xo‘jaliklariga uyuştiriladigan ekskursiyalarga ham katta e’tibor berilishi kerak. Chunki bunday ekskursiyalarda hayvonlar tabiiy muhitda o‘rganiladigan bo‘lganidan, ularning tuzilishi va hatti - harakati bilan yashash muhiti o‘rtasidagi bog‘lanishni ochiq - oydin ko‘rsatib berish mumkin. Masalan, karam kapalagi va uning qurtini sinfda o‘rganilganida bu bog‘lanishni tushuntirish oson bo‘lmaydi. Tabiatda esa karam kapalagining oq rangli qanotini o‘simlik guliga o‘xshatish mumkin.

XULOSA

Zoologiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar. Ular o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashining rivojlanishiga, ularni kasbga yo‘nalish va amaliy hayotga tayyorlashga imkon beradi ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprel 187 sonli "Umumiylashtirish metodi. Ushbu metod yordamida tayanch harakatlanishida nuqsoni bor o‘quvchilar o‘quv materialidagi asosiy bo‘lgan dalillar va tushunchalarni ajratib olish, ularni solishtirish orqali belgilarning rivojlanish xususiyatini tasavvur qilish, umumiylashtirishdan iborat.
2. O. Mavlonov, S. Najimova, M. Nishonboyeva « Zoologiyani o‘qitish metodlari va texnologiyalari » - Toshkent, 2005.
3. A. Abdulkarimov, A. G‘ofurov, K. Nishonboyev, J. Hamidov, B. Toshmuhamedov, O. Eshonqulov « Biologiya akademik litsey va kasb - hunar kollejlari uchun darslik ». -Toshkent, 2014.
4. O. Eshonqulov, J. Hamidov, A. Bekmuhammedov « Biologiya », Toshkent, 2006.
5. O. Mavlonov « Biologiya (Zoologiya) ». - Toshkent, 2017. 2022/6/20 10:43